
2-SEKTOR XABARLARI



YoShLAR SEKTOR RAHBARINING NAZORATIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 19 yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori va Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 7 iyundagi qarorining ijrosini ta'minlash yuzasidan ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz va ijtimoiy faol bo'lmagan yoshlar bilan "Yoshlar" daftarini yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lom raqobatni shakllantirish bo'yicha tuman prokuroriga biriktirilgan sektor hududidagi "Qizil toifada"gi yoshlarni doimiy holidan xabar olinib, ularni o'zi qiziqtirgan yo'nalishlari bo'yicha muammolari xal etib kelinmoqda.

Jumladan, 2-sektor hududidagi Yuqori Soybo'yi va Soybo'yi mahalla fuqarolar yig'inidan "Qizil toifa"ga kiritilgan

4 nafar ijtimoiy homiyaga muhtoj guruh nogironligi bo'lgan D.Abdullajonov, N.Abdurahmonova, E.Akramova va N.Eshmatovlarni yashash xonadoniga borilib, holidan xabar olindi va ularga turli xil oziq-ovqat mahsulotlar berilishi ta'minlandi hamda sektor rahbari tomonidan sohaga oid ishlar davom ettirib kelinmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-06-17 16:25:33